Dastlabki ma’lumotlar

# 2023- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʻlumotlarga koʻra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 090,4 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar 1 950,4 mlrd. soʻmni (103,6 %), oʻrmon xoʻjaligi – 115,3 mlrd. soʻmni (105,6 %), baliqchilik xoʻjaligi – 24,7 mlrd. soʻmni (68,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Navoiy viloyatining ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.



**2 090,4** — Navoiy viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. soʻm

01 — **1 950,4** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar

02 — **115,3** — Oʻrmon xoʻjaligi

03 — **24,7** — Baliqchilik xoʻjaligi

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, (% da).



2023- yilning yanvar- mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,3 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar,5,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi (mlrd.so‘m)




2023- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (545,1 mlrd. so‘m), Qiziltepa (398,3mlrd. so‘m) va Navbahor (303,5 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahar (13,9 %), Zarafshon (18,1 mlrd. so‘m), G‘ozg‘on shahar (23,3 mlrd. so‘m)larini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur’ati Karmana (109,6 %), Konimex (107,7 %), Tomdi (105,1 %), aksincha Uchquduq (102,2 %) Xatirchi (102,2 %), Qiziltepa (99,0 %), Zarafshon shahar (98,7 %) Navoiy shaharlar esa (97,2 %), past sur’atlar kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (%) da




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 925,1 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 1 844,0 mlrd. so'mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari 81,1mlrd.so'm ni (108,7 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi (%) da




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 83,1 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 9,6 % i – fermer xo‘jaliklariga, 7,3 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tumanlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%) da




2023- yilning yanvar- mart oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida (22,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Xatirchi tumanida (93,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Navoiy shahrida (62,7 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2023- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 81,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,2 % ni tashkil qildi.

# Sabzavotlar

**Hajmi, tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3166 tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 16,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 73,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik

2023- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 1 844,0 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 30,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p), 84,8 ming tonna sut (3,0 % ga ko‘p),

77,2 mln. dona tuxum (2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi va 1296,0 tonna baliq ovlandi.

## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 30,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Navoiy viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut












2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 84,8 ming tonna sut (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 77,2 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 62,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq ovlash

**Hajmi, tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1296,0 tonna (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 68,7 % ) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalaribo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 63,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



# Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 88,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 27,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 57,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 14,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 41,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 50,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 7,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 525,6 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 16,9 ming taga (3,3 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 88,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Navoiy viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 209,6 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni (3,0 %) ga ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 394,5 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 103,4 ming taga (4,5 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**









2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 57,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 21 123 taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 836 taga (4,1 %) ko‘paydi.

## Otlar

Soni, bosh




O‘sish sur’ati




Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 50,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 582,9 ming taga yetdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 194,0 ming taga (5,7 %) ko‘paydi.

## Parrandalar












2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 57,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi
• 79- 223-23-40